

## MILLIY RUXDAGI GANCH O'YMAKORLIGI

**Azizbek Rahimov Yaxshiboyevich<sup>1</sup>, Normatov Shuxrat Farxod o'g'l<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasи o'qituvchisi, <sup>2</sup>Professional ta'lif: rangtasvir (dastgohli) yo'nalishi talabasi

e-mail:rahimovazizbek09@gmail.com

**Annotasiya.** Sharqda, jumladan, mamlakatimiz xududida tasviriy san'at va amaliy san'at bilan uyg'un xolda rivojlangan. Davr o'tib, diniy qarashlarning o'zgarishi natijasida tasviriy bezak san'atida inson, jonzotlar tasviridan foydalanish muayyan darajada to'xtab, uning o'rniga naqqoshlikning ganch, tosh va yog'och o'ymakorligi kabi turlaridan foydalanilgan. Bu esa naqqoshlikning xamda islimiy uslublarning rivojlanishiga, ustalarining tasavvuri, dunyoqarashlari va ilm saloxiyatlari-yu – tajribalari o'sib, badiiy kompozitsion jihatdan mukammal asarlar yaralishiga saba bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** ganch, rassom, tasvir, o'yma, tosh, yog'och.

\*\*\*

**Аннотация.**На Востоке, в том числе и на территории нашей страны, оно развивается в гармонии с изобразительным и прикладным искусством. Со временем, в результате изменения религиозных взглядов, использование образов человека и животных в изобразительном искусстве в известной мере прекратилось и уступило место различным видам живописи (ганчу, камню, резьбе по дереву). Это привело к развитию живописи и исламского стиля, росту воображения, мировоззрения и научного потенциала мастеров, созданию шедевров в плане художественной композиции.

**Ключевые слова:** гипс, живописец, роспись, резьба, камень, дерево.

\*\*\*

**Annotation.**In the East, including in the territory of our country, it is developed in harmony with the fine arts and applied arts. Over time, as a result of changes in religious beliefs, the use of human and animal imagery in the fine arts ceased to a certain extent, and was replaced by plaster, stone, and wood carvings. This led to the development of painting and Islamic style, the growth of the imagination, worldview and scientific potential of masters, and the creation of masterpieces in terms of artistic composition.

**Keywords:** plaster, painter, painting, carving, stone, wood.

Sharqda, jumladan, mamlakatimiz xududida tasviriy san'at va amaliy san'at bilan uyg'un xolda rivojlangan. Davr o'tib, diniy qarashlarning o'zgarishi natijasida tasviriy bezak san'atida inson, jonzotlar tasviridan foydalanish muayyan darajada to'xtab, uning o'rniga naqqoshlikning ganch, tosh va yog'och o'ymakorligi kabi turlaridan foydalanilgan. Bu esa naqqoshlikning xamda islimiy uslublarning rivojlanishiga, ustalarining tasavvuri, dunyoqarashlari va ilm saloxiyatlari-yu – tajribalari o'sib, badiiy kompozitsion jihatdan mukammal asarlar yaralishiga saba bo'lgan.

XIII asrda ganchkorlik juda rivojlangan. Bunga Afrosiyobda topilgan ganch o'ymakorlik ishlari misoldir. XIV-XVIII asrlarda xam binolarning ichki

qismlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Ganchkorlikning gullab-yashnagan davri XVIII asr oxiri - XIX asr boshiga to'gri keladi. Bu davrda uz ishining ajoyib ustalari yetishib chiqqan. Abduraxim Noyotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Xayot Nosirov, Usta Xoji Xafiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta A'zim, Usta Omonulla, Usta Botir, Usta Ibroxim, Usta Sarfi, Usta Abdufattox va boshqa ganchkorlar o'z davrining mohir ustalaridir.

XX asr boshiga mansub ishlarda o'yma relyefli, juda mayin uslub texnikasini ko'rishimiz mumkin. Ularda rangli ganchlar, bo'yoqlar, naqsh va tasvirlar qo'llangan.

1913-1914 yillarda Buxoroda amir Axadxon tomonidan Sitorai Moxi Xosa qurildi. "U ganch uymakorligi bilan bezatilib, o'z davridagi ganch o'ymakorligining yorqin namunasi deya e'tirof etiladi. Buni, ayniqsa, "Oq uy" (mexmonxona) oyna ganch o'ymakorligida bajarilganligini ko'rish mumkin. U o'zining nozikligi, jimjimador bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta SHirin bajargan. U o'sha davrda eng ko'zga ko'ringan ganchkor ustalardan edi". Bu davrda ganchkorlikka aloxida e'tibor qaratilgan.

1918-1920 yillarda xunarmandlar qo'mitasi, Toshkentda o'lkashunoslik, xunarmandlar tashkiloti, o'quv namunaviy ustaxonalar va xunarmandlar ishlari bo'yicha muzey tashkil etildi. Uzbekistan xunarmandlari o'z ishlari bilan 1937 yilda Parijda "San'at va texnika xozirgi kunda" nomli ko'rgazmada ishtirok etib, 2 ta "Gran pri", 2 ta kumush va 1 ta oltin medal bilan mukofotlandilar.

Uzbekistonda o'ziga xos ganchkorlik maktablari mavjud bo'lib, shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir. Xorazm ganchkorligida geometrik naqshlarga aloxida e'tibor beriladi. U shu jixat bilan boshqa viloyatlar ganchkorligidan ajralib turadi. Masalan, Xorazm ganchkorligida o'simliksimon naqshlarning spiral shaklda aylanma xarakatlanishi, dinamikligi yaqqol seziladi. Islimiylar ko'pincha yaxlit turunj madoxil qalampir va bodomga o'xshash tanob shakllarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ba'zan turunj madoxilli tanoblar o'rniga yulduzsimon girixlar xam ishlatilgan. Islimiylar naqshlarda novda juda ko'p uchraydi va bundan tashqari, marg'ula, barg, shkufta, oyul, no'xotgul, kurtak va g'unchalar ko'p qo'llaniladi.

Xiva ganchkorligining xarakterli jixatlaridan yana biri naqshlarning erkinligi, xarakatchanligi va jo'shqinligidir. Bu maktab naqqosh ustalari ko'pincha ko'k va yashil ranglardan foydalanishgan.

Buxoro ganchkorlik san'ati eng rivojlangan maskandir. Buxoro ganchkorligi o'yma naqshlarning o'ziga xos mayinligi, jozibadorligi va boshqa jixatlari bilan ajralib turadi.

Toshkent ganchkorlik maktabi xam san'atning bu turida o'ziga xos o'rinni

egallaydi. U naqshlarining nozikligi, aniq simmetrik taqsimlanishi, egaligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Samarqand dunyoga mashxur qadimiylar shaxarlardan biri bo'lib, u yerda ishlangan naqshlarning xar biri o'ziga xos mактабга ega. Boshqa ganchkorlik maktablarining naqshlari tuzilishi jihatidan Toshkent naqshlariga o'xshab ketadi.

O'zbekistan me'morchiligidagi o'ziga xos o'rин tutgan Toshkent shaxridagi Kurant binosi me'mor A. Muxamedshin boshchiligidagi 1947 yilda qurilgan. Bu binoni bezashda buxorolik Usta SHirin qatnashgan.

Vatanimiz me'morchilshida aloxida o'rин egallagan O'zbekistan Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey SHusevning loyihasi va raxbarligi ostida qurib bitkazildi. SHusev O'zbekistan viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yig'ib, muxim vazifani bajarish, ya'ni teatrning zallarini xar bir viloyatning o'ziga xos milliy uslubida bezash xamda bezalgan xonalar teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushushi kerakligi xaqidagi masalani qo'ydi. Buning natijasida teatrning Xiva, Termiz zallari qadimda ishlatilgan ganchkorlik uslubida ishlandi. Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an'anasiga mos ganch o'ymakorligi bilan bezatildi.

Har qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch o'ymakorligi turlarini tanlash, qo'llash muxim axamiyatga eta. Kichik xonalarga mayda tekis o'yma va unga mos pardoz turi, katta mexmonxonalarga esa yirik yoyma va o'ziga xos ganch o'ymakorligi qo'llaniladi.

Ganch o'ymakorligining yirik o'yma, chuquro'yma, yassi o'yma, qirma zaminli ko'zguli o'yma, zamini rangli o'yma, chizma pardoz, panjarasimon o'yma, zanjira, xajmli o'yma turlari mavjud. Bundan tashqari, ganch uymakorligi zaminli va zaminsiz o'ymalarga bo'linadi. Ular orasida eng ko'p qo'llaniladigan yassi o'ymadir. U interyerda ko'p qo'llaniladi. Uncha katta bo'limgan xonalarda o'ymasining chuqurligi 1-1,5 sm bo'lgan, unga xar xil pardoz turlari ishlatiladi. *O'yma* naqshlarning zamini umumiy yuzaning 30-60 foizini egallaydi. Unga joyga moslab pax pardoz, choka pardoz, lo'la yoki tabaqa pardoz beriladi. Qirma o'yilgan joylar rangli ganch qorishmasi bilan to'ldiriladi.

Ganch o'ymakorligi bino, inshootlarning tashqi va ichki tomonini bezashda qo'llaniladi. Xozirgi paytda san'atning bu turi xam zamonaviy ko'rinishda namoyon bulmoqda. Interyer dizayni rivojlanib, milliylik ruxidagi uslublarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amaliy san'atning boshqa turlari bilan xamoxang tarzda ganchkorlikning yangi turlari va yunalishlari kashf etilmoqda. San'atning bu yo'nalishi o'zining betakrorligi, maxobatli va jozibador ko'rinishi bilan ulug'vorlik kasb etib, kishilarda xayrat va zavq uyg'otadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekistan, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- T.:O'zbekiston, 2017.-1046.
3. Xudoyberdiyev, M. (2021). "Manzara rangtasvirini" o 'qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
4. Xudoyberdiyev, M. (2021). Umumiy o 'rta ta'lif tizimida tasviriy san'at o 'quv fanini o 'qitishning ahamiyati. *Физико-технологического образования*, (5).
5. Жабборов, А. Ж., & Пардаев, Б. А. (2020). Обучение в рамках технологического и трудового образования. *Научное знание современности*, (1), 19-22.
6. Pardayev, B. (2020). Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўллаш технологияларини ишлаб чиқиш ва ўқув-тарбия жараёнига татбиқ этиш. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
7. Kholmuratovich, M. K., Mardanqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
8. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta'lilda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
9. Boltaboevich, B. B., & Ogiloy, K. (2008). Master of historical portrait genre, a teacher who created a school in the field of fine arts people's artist of Uzbekistan professor Malik Nabiev (1906-2008).